

YASHIL

IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№11

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 174 sahifa.
2025-yil, noyabr*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

BANK AKTIVLARI VA PASSIVLARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH	34
Safarov Sanjar Ravshan o'g'li	
O'ZBEKISTONNING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISH STRATEGIYALARI.....	38
Madraximova Irodaxon Sherzodbek qizi	
HUDUDIIY XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA MENEJMENT SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING RAQAMLI TRANSFORMATSIYA MODELII	43
Maxmudova Nozimaxon Baxriddinxonovna	
DAVLATNING BUDJET SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI	50
A.A. Ismailov	
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGINING MEXANIZMINI SAMARALI TASHKILLASHTIRISHDA MOLIYAVIIY MANBALARNI SHAKLLANTIRISHNI YO'NALISHLARI	56
Mansurov Mansur Alisherovich	
ANTIKRIZISLI BOSHQARUV TIZIMLARIDA RANGLI SIGNAL MEXANIZMLARINING FUNKSIYALARI.....	61
Aliqulov Aziz Haydarjonovich	
XODIMLARNI MOTIVATSIYALASHNING XALQARO MODELLARINI O'ZBEKISTON KORXONALARIDA QO'LLASH IMKONIYATLARI.....	66
Yormamatov Qodirjon Juraqulovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT OMILLARI VA ULARNING QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARINING SAMARADORLIGIGA TA'SIRI	71
Yaxshiyev Shahzod Sherali o'g'li	
OLIY TA'LIM MUASSASALARI VA MEHNAT BOZORI INTEGRATSIYASI BO'YICHA XORIJ TAJIRIBALARI	78
Haqulov Fazliddin Faxriddinovich	
YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISHDA RIVOJLANGAN VA RIVOJLANAYOTGAN DAVLATLAR TAJIRIBASI	84
Aripov Abdulaziz Sakijonovich	
YASHIL ENERGETIKA RIVOJLANISHINING IQTISODIIY SAMARADORLIGINI EKONOMETRIK BAHOLASH.....	89
Bobokulova Muhabbat Mahammadiyeva	
ELEKTRON TO'LOVLAR VA POS TIZIMLARI — KICHIK BIZNESDA SAMARASI VA XAVFLARI	93
To'liqinov Dilshodxo'ja Olim o'g'li	
MINTAQADA RAQAMLI IQTISODIYOTNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI	98
Yusubov In'omjon Ikram o'g'li	
SOLIQ SIYOSATINI RAQAMLI BOSHQARISH ORQALI BUDJET DAROMADLARINI BARQARORLASHTIRISH STRATEGIYASI.....	103
Xodjimatom Xamidullo Mamirjonovich	
OZIQ-OVQAT TOVARLARI B2B BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIIY MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH	108
Hayitboyeva Ullijon Bobonazar qizi	
FARMASEVTIKA SANOATIDA INVESTITSION FAOLIYAT SAMARADORLIGINI BAHOLASH	113
Yaqubov Timurbek G'aniybekovich	
STRUCTURE-PROPERTY RELATIONSHIP OF ORGANOSILICON MATERIALS: EVALUATION BASED ON THERMOGRAVIMETRIC ANALYSIS	116
Tosheva Dilfuza Farxodovna, Siddikov Ikrom Iminjonovich, Rakhimov Firuz Fazliddinovich	
SHAXSNI OVOZI ASOSIDA IDENTIFIKATSIYALASH VA AUTENTIFIKATSIYALASH ALGORITMLARI	123
Ozoda Sabirova Shermamaxamatovna	



YASHIL IQTISODIYOT — BARQAROR RIVOJLANISH GENERATORI	129
Berdibekova Dilfuza Xoldorbekovna	
CHET EL MEHMONXONA TARMOQLARINING BRENDING STRATEGIYALARINI O'RGANISH	133
Ergashev Oybek Mamarasul o'g'li	
MILLIY IQTISODIYOTDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SOHASINING MOLIVAVIY SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING USLUBIY JIHLATLARINI TAKOMILLASHTIRISH	144
Arzikulov Otabek Ali o'g'li	
TRANSPORT TIZIMI SOHASI KORXONALARININING INNOVATSION SALOHIIYATINI BAHOLASH YO'NALISHLARI	152
Ismailov Akmal Maxsudovich, Abilqosimova Shaxlo Sodiq qizi	
MEHMONXONALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA XODIMLARNING O'RNI VA AHAMIYATI	158
Abduxamidov Sarvar Adxamovich, Normurodov Tal'at Normurod o'g'li	
KORXONALARDA HR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	163
Aminova Shaxnoza Aziz qizi	
JAHON IQTISODIYOTIDA OZIQ-OVQAT XAFSIZLIK RO'LI	168
Abdusamatov Barkamol Rustamjon o'g'li	



JAHON IQTISODIYOTIDA OZIQ-OVQAT XAFSIZLIK RO'LI



Abdusamatov Barkamol Rustamjon o'g'li

Tadqiqotchi

barkamolabdusamatov090@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada jahon iqtisodiyotida oziq-ovqat xavfsizligining o'rnini, uning iqtisodiy o'sish, ijtimoiy barqarorlik va xalqaro hamkorlikka ta'siri tahlil qilingan. Tadqiqot davomida FAO, Jahon banki, AMIS va UNICEF ma'lumotlari asosida global oziq-ovqat tizimining hozirgi holati, narx o'zgarishlari va iqlim omillarining ta'siri o'rganilgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, past va o'rta daromadli mamlakatlarda oziq-ovqat inflyatsiyasi yuqori bo'lib qolmoqda, bu esa ijtimoiy tengsizlik va iqtisodiy xavflarni kuchaytiradi. Maqolada global oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda "aqlli" qishloq xo'jaligi texnologiyalari, barqaror ishlab chiqarish tizimlari va xalqaro integratsiyaning ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: oziq-ovqat xavfsizligi, global iqtisodiyot, qishloq xo'jaligi, inflyatsiya, iqlim o'zgarishi, FAO, barqaror rivojlanish.

Abstract. The article examines the role of food security in the global economy and its impact on economic growth, social stability, and international cooperation. Based on data from FAO, the World Bank, AMIS, and UNICEF, the study analyzes the current state of the global food system, price dynamics, and the effects of climate factors. The findings reveal that food inflation remains high in low- and middle-income countries, exacerbating social inequality and economic risks. The paper emphasizes the importance of smart agricultural technologies, sustainable production systems, and international integration in ensuring global food security.

Key words: food security, global economy, agriculture, inflation, climate change, FAO, sustainable development.

Аннотация. В статье рассматривается роль продовольственной безопасности в мировой экономике, её влияние на экономический рост, социальную стабильность и международное сотрудничество. На основе данных ФАО, Всемирного банка, AMIS и ЮНИСЕФ проведён анализ современного состояния глобальной продовольственной системы, динамики цен и влияния климатических факторов. Результаты показывают, что в странах с низким и средним уровнем дохода сохраняется высокая продовольственная инфляция, усиливающая социальное неравенство и экономические риски. В работе подчёркивается значение «умных» сельскохозяйственных технологий, устойчивого производства и международной интеграции для обеспечения глобальной продовольственной безопасности.

Ключевые слова: продовольственная безопасность, мировая экономика, сельское хозяйство, инфляция, изменение климата, ФАО, устойчивое развитие.

KIRISH

Oziq-ovqat xavfsizligi jahon iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida muhim omillardan biri hisoblanadi. U iqtisodiy o'sishni jadallashtiradi, kambag'allikni qisqartiradi va ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta'minlaydi. Xavfsiz va barqaror oziq-ovqat tizimi aholi salomatligi hamda mehnat unumdorligini oshiradi, shu orqali ishlab chiqarish samaradorligini kuchaytiradi va xalqaro savdo imkoniyatlarini kengaytiradi. Oziq-ovqat xavfsizligining yetishmasligi iqtisodiy faollikning pasayishiga, sog'liqni saqlash xarajatlarining ortishiga hamda keng ko'lamli iqtisodiy va siyosiy beqarorlikka olib kelishi mumkin.



Qo'shma Shtatlar global oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash yo'lidagi xalqaro tashabbuslarda yetakchi o'rin tutadi. Mamlakat dunyo miqyosida sifatli va ishonchli oziq-ovqat manbalariga bo'lgan ehtiyojni qondirishga qaratilgan keng ko'lamli dasturlarni amalga oshirmoqda. AQShning xalqaro miqyosdagi yordami, asosan, har bir davlatning o'z aholisini yetarli miqdorda, to'yimli va xavfsiz oziq-ovqat bilan ta'minlash salohiyatini mustahkamlashga yo'naltirilgan. Bu orqali Qo'shma Shtatlar nafaqat global oziq-ovqat tizimining barqarorligini qo'llab-quvvatlaydi, balki jahon iqtisodiyotida iqtisodiy o'sish, ijtimoiy farovonlik va siyosiy barqarorlikni ta'minlashda ham muhim rol o'ynaydi.

Mamlakatimizda ham oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash masalalari yuzasidan prezident Shavkat Mirziyoyev boshchiligidagi strategik ishlar amalga oshirilmoqda.

Kelgusi yil 4 million 800 ming gektarda ekinlar yetishtirish mo'ljallangan. Shundan 2 million gektardan ziyod yerda meva-sabzavot, kartoshka, dukkakli va poliz mahsulotlari ekiladi. Ularning dalalarda joylashtirilishi va hosilning zaxiraga jamlanishi monitoring qilib boriladi¹.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Jahon iqtisodiyotida oziq-ovqat xavfsizlik ro'li mustahkamlashda eng avvalo qishloq xo'jaligi sohasiga alohida e'tibor qaratish zarur hisoblanadi.

Oziq-ovqat xavfsizligi masalasini tadqiq etuvchi ko'plab ilmiy manbalarda qishloq xo'jaligi sohasining hal qiluvchi roli alohida ta'kidlanadi. Tadqiqotchilar fikriga ko'ra, qishloq xo'jaligi nafaqat insoniyatning asosiy oziq-ovqat manbai, balki dunyo bo'yicha ikki milliarddan ortiq aholi uchun barqaror daromad va bandlik manbai sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, ilmiy adabiyotlarda ushbu sohaning global oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashdagi imkoniyatlariga bir qator jiddiy tahdidlar mavjudligi qayd etiladi. Xususan, iqlim o'zgarishi, tabiiy ofatlar, zararkunandalar hujumlari, suv resurslarining tanqisligi hamda yer unumdorligining pasayishi kabi omillar qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining barqaror rivojlanishiga sezilarli darajada salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Qishloq xo'jaligi sohasidagi o'sish, o'rtacha hisobda, boshqa sohalardagi o'sish bilan solishtirganda, kambag'allikni kamaytirishda kamida ikki baravar samaraliroq ekanligi aniqlangan. Oziq-ovqat xavfsizligining yetishmasligi — ko'pincha kambag'allik ildizida yotuvchi holat — mamlakatlarning o'z qishloq xo'jaligi bozorlarini va iqtisodiyotlarini rivojlantirish imkoniyatlarini cheklaydi[1].

Sifatli, to'yimli oziq-ovqatga ega bo'lish inson hayoti uchun asosiy zaruratdir. Oziq-ovqatga barqaror kirish imkoniyati keng ko'lamli ijobiy ta'sirlarni keltirib chiqarishi mumkin, jumladan:

- iqtisodiy o'sish va ish o'rinlarining yaratilishi;
- kambag'allikning kamayishi;
- savdo imkoniyatlarining kengayishi;
- global xavfsizlik va barqarorlikning oshishi;
- sog'liqni saqlash va tibbiy xizmatlarning yaxshilanishi.

Oziq-ovqat xavfsizligi faqat sog'liq masalasi emas; bu, shuningdek, iqtisodiyot masalasidir. Oziq-ovqat xavfsizligining iqtisodiy oqibatlarini keng ko'lamli bo'lib, u shaxslar, jamoalar va butun mamlakatlarga ta'sir ko'rsatadi. Shaxsiy darajada yaxshi ovqatlanish — oziq-ovqat xavfsizligining asosiy tarkibiy qismi — insonning jismoniy va aqliy salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish imkonini beradi. Bu esa, o'z navbatida, unumdor mehnat kuchini shakllantirishda muhim omil bo'lib, iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi[2].

Aksincha, to'yib ovqatlanmaslik yoki noto'g'ri ovqatlanish mehnat unumdorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ham yetarli darajada ovqatlanmaslik, ham ortiqcha ovqatlanish insonning ishlash va o'rganish qobiliyatiga to'sqinlik qiluvchi sog'liq muammolarini keltirib chiqarishi mumkin. Bu holat mamlakat iqtisodiy taraqqiyotiga zanjirli ta'sir ko'rsatadi — mehnat unumdorligini kamaytiradi, sog'liqni saqlash xarajatlarini oshiradi va iqtisodiy o'sishni sekinlashtiradi[2].

Makroiqtisodiy nuqtai nazardan, barqaror oziq-ovqat tizimi bozor barqarorligini ta'minlay oladi. U narxlarning keskin o'zgarish xavfini kamaytiradi, bu esa ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar uchun birdek zararli bo'lishi mumkin. Oziq-ovqat narxlarining beqarorligi dehqonchilikni tavakkal kasbiga aylantirib, foyda olish imkoniyatini pasaytiradi va investitsiyalarni kamaytiradi. Iste'molchilar uchun esa, ayniqsa kambag'al qatlamlar orasida, oziq-ovqat narxlarining oshishi to'yimli ovqatni arzon narxda xarid qilish imkonini yo'qqa chiqaradi, natijada ularni kambag'allik va oziq-ovqat tanqisligi doirasiga tushirib qo'yadi[2].

2023-yilda sayyoradagi ikki milliarddan ortiq odam oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlay olmagan, jumladan, Qo'shma Shtatlarda ham 18 million xonadon bu muammoga duch kelgan. Bir mamlakatning harakatlari boshqa mamlakatlarning oziq-ovqat xavfsizligiga ta'sir ko'rsatishi mumkin, shuningdek, iqlim o'zgarishi, harbiy mojarolar va oziq-ovqat narxlarining oshishi kabi global muammolar ta'minot zanjirlarida beqarorlik hamda tanqisliklarni keltirib chiqarishi mumkin[3].

¹ <https://president.uz/oz/lists/view/7731>



Peter Timmer agrar islohotlarsiz oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlab bo'lmaydi; iqtisodiy o'sish bilan agrar sektor o'zaro bog'liq[4] degan fikrni ilgari surgan.

Abdurashid Ergashev "Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning iqtisodiy mexanizmlari" nomli maqolasida O'zbekiston iqtisodiyotida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash uchun ichki ishlab chiqarishni rag'batlantirish, import o'rnini bosuvchi siyosat va agrar investitsiyalar tizimini taklif qilgan[5].

Egamberdiev B., Zakirov B., Useinov A. (2025) tomonidan tayyorlangan Fostering Resilience for Food Security in Uzbekistan (IZA Discussion Paper No. 16921) hisobotida O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash bo'yicha iqtisodiy islohotlar, importga qaramlik va iqlim o'zgarishining ta'siri chuqur tahlil qilingan[6].

Shu bois, zamonaviy ilmiy tadqiqotlar qishloq xo'jaligida innovatsion texnologiyalarni joriy etish, resurslardan oqilona foydalanish va ekologik barqaror ishlab chiqarish tizimlarini shakllantirishni oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning eng muhim yo'nalishlari sifatida ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda jahon oziq-ovqat xavfsizligining hozirgi holatini, uning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik omillarini kompleks tahlil qilishga yo'naltirilgan ilmiy yondashuvlardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

2025-yil sentabr oyida e'lon qilingan Global oziq-ovqat inqirozlari hisobotining yangilanishi ma'lumotlariga ko'ra, dunyo miqyosida oziq-ovqat xavfsizligi holati jiddiy tashvish uyg'otmoqda. Mazkur hisobot BMT agentliklari, texnik tashkilotlar, donorlar hamda mintaqaviy hukumatlararo tuzilmalar konsortsiumi tomonidan tayyorlangan bo'lib, unda 1,4 million kishi o'ta og'ir — falokat darajasidagi oziq-ovqat yetishmovchiligi sharoitida yashayotgani qayd etilgan. Ushbu ko'rsatkich global miqyosda oziq-ovqat tizimlarining beqarorligini va insoniyatning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligiga tahdid solayotgan muammolar chuqurlashayotganini tasdiqlaydi.

Shuningdek, 2025-yil avgust oyida Integratsiyalashgan oziq-ovqat xavfsizligi fazalari tasnifi (IPC) tomonidan Sudan va G'azo sektorida ocharchilik (5-faza) e'lon qilinishi global oziq-ovqat inqirozining eng keskin bosqichga kirganini ko'rsatadi. Bundan tashqari, Gaiti, Mali, Janubiy Sudan va Yaman davlatlarida ham aholining katta qismi keskin oziq-ovqat tanqisligiga duch kelgani aniqlangan. Ushbu holatlar oziq-ovqat xavfsizligiga ta'sir etuvchi siyosiy beqarorlik, qurolli mojarolar, iqlim o'zgarishlari va iqtisodiy izolyatsiya kabi omillar o'zaro bog'liqligini yana bir bor tasdiqlaydi.

1-jadval. 2025-yilda Jahon oziq-ovqat xavfsizligi holatining asosiy ko'rsatkichlari

№	Ko'rsatkich nomi	2024-yil	2025-yil	O'zgarish (%)
1	Jahonda oziq-ovqat bilan to'liq ta'minlanmagan aholining ulushi	9.2 %	8.8 %	↓ 0.4 %
2	Oziq-ovqat narxlarining o'rtacha yillik o'sishi (global)	7.3 %	6.1 %	↓ 1.2 %
3	Past daromadli mamlakatlarda oziq-ovqat inflyatsiyasi 5 % dan yuqori bo'lganlar ulushi	63.0 %	52.9 %	↓ 10.1 %
4	Past-o'rta daromadli mamlakatlarda yuqori inflyatsiya ulushi	36.9 %	45.7 %	↑ 8.8 %
5	Yuqori o'rta daromadli mamlakatlarda yuqori inflyatsiya ulushi	45.0 %	50.0 %	↑ 5.0 %
6	Oziq-ovqat inflyatsiyasi umumiy inflyatsiyadan yuqori bo'lgan mamlakatlar	62 %	65 %	↑ 3 %
7	Global qishloq xo'jaligi narx indeksi o'zgarishi	—	+3 %	—
8	Global eksport narx indeksi o'zgarishi	—	+6 %	—
9	Global don narx indeksi o'zgarishi	—	+4 %	—
10	Makkajo'xori narxi (yillik taqqoslama)	+8 %	+5 %	↓ 3 %
11	Bug'doy narxi (yillik taqqoslama)	+2 %	-5 %	↓ 7 %



12	Guruch narxi (yillik taqqoslama)	+41 %	–34 %	↓ 75 %
13	5 yoshgacha bo'lgan bolalarda o'sishdan orqada qolganlar (stunting) soni	150 mln	148 mln	↓ 2 mln
14	5 yoshgacha ozib ketgan bolalar (wasting) soni	47 mln	45 mln	↓ 2 mln
15	5 yoshgacha ortiqcha vaznga ega bolalar soni	36 mln	37 mln	↑ 1 mln

Manba: FAO, World Bank, AMIS, UNICEF ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Global oziq-ovqat narxlari dinamikasi (2025-yil may–avgust holati). Jahon miqyosida oziq-ovqat mahsulotlari narxlari inflyatsiyasi o'rta darajada yuqori darajada saqlanib qolmoqda. 2025-yilning may–avgust oylaridagi eng so'nggi statistik ma'lumotlarga ko'ra, past va o'rta daromadli mamlakatlarda oziq-ovqat narxlari o'sishi davom etmoqda.

Xususan, past daromadli mamlakatlarning 52,9 foizida oziq-ovqat inflyatsiyasi 5 foizdan yuqori bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2025-yil 9-iyundagi ma'lumotlarga nisbatan 23,6 foiz punktga kamaygan. Past-o'rta daromadli mamlakatlarda inflyatsiya 45,7 foizni tashkil etib, 8,8 foiz punktga oshgan. Yuqori o'rta daromadli mamlakatlarda ushbu ko'rsatkich 50 foiz, yuqori daromadli mamlakatlarda esa 20 foiz atrofida qayd etilgan.

Qishloq xo'jaligi va don mahsulotlari narxlari indeksi o'zgarishi. 2025-yil 13-iyundagi holatga ko'ra, qishloq xo'jaligi, eksport va don mahsulotlari narxlari indekslari mos ravishda 3 %, 6 % va 4 % ga oshgan. Shu bilan birga, don mahsulotlari narxlari indeksidagi pasayish asosan makkajo'xori, bug'doy va guruch narxlarining tushishi bilan izohlanadi:

- makkajo'xori narxi — 2 % ga kamaygan;
- bug'doy narxi — 3 % ga pasaygan;
- guruch narxi — 9 % ga kamaygan.

Yillik taqqoslamada esa makkajo'xori narxi 5 % ga yuqori, bug'doy va guruch narxlari esa mos ravishda 5 % va 34 % ga past qayd etilgan. 2020-yil yanvar holatiga nisbatan esa makkajo'xori narxlari 10 % ga yuqori, bug'doy va guruch narxlari esa mos ravishda 7 % va 8 % ga past bo'lib qolmoqda.

Mazkur ko'rsatkichlar global oziq-ovqat bozorlarida qisqa muddatli narx o'zgaruvchanligi mavjud bo'lsa-da, o'rta muddatli pasayish tendensiyasi shakllanayotganini ko'rsatadi.

Xalqaro bozor holati va xavf omillari (AMIS, sentabr 2025). BMTning Qishloq xo'jaligi bozorlarini monitoring qilish tizimi — AMIS Market Monitor (sentabr 2025) ma'lumotlariga ko'ra, xalqaro bug'doy, makkajo'xori, guruch va soya bozorlari umumiy hisobda barqaror ta'minotga ega. Biroq, savdo siyosatidagi o'zgarishlar, bioyoqilg'i ishlab chiqarish hajmining ortishi va iqlim o'zgaruvchanligi bilan bog'liq xavf omillari bozor barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishda davom etmoqda.

Ushbu omillar, xususan, transport xarajatlari va logistika zanjirlarining uzilishi orqali oziq-ovqat narxlari bosimini kuchaytirishi mumkinligi ta'kidlanadi. Bu esa global oziq-ovqat tizimining tashqi ta'sirlarga yuqori sezuvchanligini ko'rsatadi.

Oziq-ovqat xavfsizligi va ijtimoiy barqarorlik (FAO, 2025). BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) tomonidan e'lon qilingan "The State of Food Security and Nutrition in the World – 2025" hisobotiga ko'ra, dunyo miqyosida ochlikka qarshi kurashda ma'lum yutuqlar kuzatilgan bo'lsa-da, vaziyat hanzuz beqarorligicha qolmoqda.

Pandemiyadan so'nggi yillarda oziq-ovqat xavfsizligi qisman yaxshilangan bo'lsa-da, bu jarayon mintaqalar kesimida notekis kechmoqda. Ayniqsa, past daromadli mamlakatlarda oziq-ovqat narxlarining yuqoriligi ijtimoiy tengsizlikni kuchaytirib, iqtisodiy o'sish sur'atlarini sekinlashtirmoqda.

Shuningdek, 2030-yilgacha Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDG-2: Zero Hunger) ko'rsatkichlariga erishish uchun hozirgi sur'atlar yetarli emasligi qayd etilgan.

Bolalar ozuqlanishi va global sog'liq holati (UNICEF/WHO/World Bank, 2025). "Joint Child Malnutrition Estimates – 2025" hisobotida besh yoshgacha bo'lgan bolalarda ozuqlanish bilan bog'liq muammolar global darajada jiddiy ijtimoiy muammo sifatida saqlanib qolayotgani ko'rsatib o'tilgan.

Hisobot ma'lumotlariga ko'ra:

- 148 million bola bo'yi o'smaslik (stunting)dan aziyat chekmoqda;
- 45 million bola ozib ketgan (wasting) holatda;
- 37 million bola ortiqcha vaznga ega (overweight).

Tahlillarga ko'ra, 2024–2025-yillarda oziq-ovqat narxlarining yuqoriligi va aholining xarid qobiliyatining pasayishi bolalar salomatligi ko'rsatkichlariga salbiy ta'sir ko'rsatgan.



2025-yilgi global umumiy natijalar tahlillar shuni ko'rsatadiki:

- oziq-ovqat inflyatsiyasi past va o'rta daromadli mamlakatlarda barqaror yuqori bosimni saqlab qolmoqda;
- agrar mahsulotlar narxlarida qisqa muddatli tebranishlar mavjud, biroq umumiy narxlar hali ham yuqori;
- oziq-ovqat xavfsizligi sohasidagi ilgari erishilgan yutuqlar beqaror bo'lib qolmoqda;
- bolalar ozuqlanishi va sog'liq ko'rsatkichlarida sust ijobiy o'zgarishlar yoki ayrim mintaqalarda teskari tendensiyalar kuzatilmoqda.

Ushbu natijalar shuni tasdiqlaydiki, 2025-yilda ham global iqtisodiyotda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash asosiy makroiqtisodiy va ijtimoiy ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lib qolmoqda.

2-jadval. Jahon miqyosida oziq-ovqat xavfsizligi holati va tendensiyalari (2020–2025-yillar)

Ko'rsatkichlar	2020-yil	2022-yil	2023-yil	2024-yil	2025-yil*
Global ochlik darajasi (aholi ulushi, %)	8.9	9.3	9.2	9.1	9.0
Oziq-ovqat narxlar indeksi (FAO, punktlarda)	98.1	143.7	124.2	121.1	119.5
Past va o'rta daromadli mamlakatlarda oziq-ovqat inflyatsiyasi (%)	6.5	8.2	9.1	7.4	6.9
Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish o'sishi (%)	2.1	1.8	2.6	3.0	3.2
Global oziq-ovqat import xarajatlari (trln AQSH doll.)	1.68	2.12	2.03	1.98	1.95
Iqlim omillari ta'sirida yo'qotilgan hosil (mln tonna)	65	73	78	70	68
Jahon banki oziq-ovqat xavfsizligi loyihalariga yo'naltirilgan mablag' (mlrd AQSH doll.)	12.5	16.4	21.7	25.9	28.3
Foyda oluvchi aholining umumiy soni (mln kishi)	120	185	245	297	327

*2025-yil sentabr oyigacha bo'lgan tahliliy ma'lumotlar asosida

Manba: FAO (2025), World Bank Food Security Update (Avgust 2025), IMF World Outlook Database (2025).

Global oziq-ovqat xavfsizligi indeksi 2020–2025-yillar davomida nisbatan barqaror bo'lib qolgan, ammo pandemiya va geosiyosiy inqirozlar ta'siri bilan 2022-yilda keskin oshgan. nOziq-ovqat narxlar indeksi 2023–2025-yillarda pasayish tendensiyasini ko'rsatib, global ta'minot zanjirlarining tiklana boshlaganini anglatadi. Past va o'rta daromadli mamlakatlarda oziq-ovqat inflyatsiyasi yuqori bo'lishda davom etmoqda, bu aholining xarid qobiliyatiga bevosita salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Jahon banki va FAO loyihalari 2025-yilga kelib 327 mln kishiga yordam ko'rsatgan, bu 2020-yilga nisbatan qariyb 2,7 baravar o'sishni anglatadi.

Iqlim o'zgarishi hali ham asosiy xavf omili bo'lib qolmoqda — hosilning 10–12 foizi ekstremal ob-havo tufayli yo'qolmoqda. Oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha strategik yechimlar: "aqlli" qishloq xo'jaligi texnologiyalarini joriy etish, regional zaxiralarni shakllantirish va oziq-ovqat eksportiga bog'liqlikni kamaytirish zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, 2025-yilda global oziq-ovqat xavfsizligi hanuz jiddiy muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Jahon miqyosida ochlik darajasi 9 % atrofida saqlanayotgan bo'lsa-da, past va o'rta daromadli mamlakatlarda oziq-ovqat inflyatsiyasi yuqori darajada davom etmoqda. FAO, Jahon banki va AMIS ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi o'sish tendensiyasini saqlab qolgan, biroq iqlim o'zgarishi, geosiyosiy beqarorlik, transport xarajatlari va savdo siyosatidagi o'zgarishlar global oziq-ovqat tizimlariga bosimni kuchaytirgan.

Bolalar ozuqlanishi bilan bog'liq ko'rsatkichlar — o'sishdan orqada qolish (stunting), ozib ketish (wasting) va ortiqcha vazn (overweight) — ayrim mintaqalarda biroz yaxshilangan bo'lsa-da, umumiy vaziyat beqarorligicha qolmoqda. Bular oziq-ovqat xavfsizligi nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy barqarorlik omili ekanini ko'rsatadi.

Shuningdek, o'rta muddatli davrda oziq-ovqat narxlarining pasayish tendensiyasi kuzatilayotgan bo'lsa-da, qisqa muddatli tebranishlar global bozorlar uchun tavakkal darajasida saqlanmoqda. Jahon banki va FAO dasturlari 2020–2025-yillar davomida 327 milliondan ortiq insonni qamrab olib, oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlashda muhim rol o'ynagan. Biroq, 2030-yilgacha Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDG-2: Zero Hunger) ko'rsatkichlariga erishish uchun hozirgi sur'atlar yetarli emas.

Takliflar:

1. Qishloq xo'jaligida "aqlli" texnologiyalarni joriy etish. Suv tejamkor sug'orish tizimlari, raqamli monitoring va agroinnovatsiyalarni rivojlantirish orqali hosildorlikni oshirish zarur.
2. Milliy oziq-ovqat zaxiralarni shakllantirish. Strategik zaxira tizimi oziq-ovqat narxlarining tebranishiga qarshi bufer sifatida xizmat qiladi.



3. Hududlar kesimida oziq-ovqat importiga qaramlikni kamaytirish. Mahalliy ishlab chiqarishni rag'batlantirish orqali import o'rnini bosuvchi siyosatni kengaytirish lozim.

4. Iqlim o'zgarishiga moslashuv siyosatini kuchaytirish. Ekstremal ob-havo ta'sirida hosil yo'qotishlarini kamaytirish uchun barqaror agrar siyosat yuritish talab etiladi.

5. Aholining ijtimoiy himoyasini kengaytirish. Kam ta'minlangan qatlamlarga mo'ljallangan oziq-ovqat kuponlari, subsidiyalar va ijtimoiy dasturlar orqali oziq-ovqatga kirish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadga muvofiq.

6. Xalqaro hamkorlikni kuchaytirish. FAO, Jahon banki va BMTning boshqa tashkilotlari bilan hamkorlikda mintaqaviy oziq-ovqat xavfsizligi dasturlarini amalga oshirish samarali natija beradi.

7. Ilmiy-tadqiqot ishlarini chuqurlashtirish. Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning iqtisodiy mexanizmlari, resurslardan samarali foydalanish va raqamli yechimlar bo'yicha milliy tadqiqotlarni kengaytirish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. National Institute of Food and Agriculture, U.S. Department of Agriculture, Page last updated: October 22, 2025. <https://www.nifa.usda.gov/topics/global-food-security>
2. Christian Lee, The Importance Of Food Security In 2025, February 12, 2025. <https://www.maidencap.com/insights/the-importance-of-food-security#:~:text=Food%20security%20isn't%20just,of%20poverty%20and%20food%20insecurity.>
3. The Fight for Food Security: U.S.-China & the World, <https://www.ncuscr.org/video/food-security/> November 25, 2024
4. Timmer, C. P. (2015). Food Security and Scarcity: Why Ending Hunger Is So Hard. University of Pennsylvania Press.
5. Ergashov, A. Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning iqtisodiy mexanizmlari. – Toshkent: TDIU nashriyoti. 2022.
6. Egamberdiyev B., Zakirov B., Useinov A. (2025) tomonidan tayyorlangan Fostering Resilience for Food Security in Uzbekistan (IZA Discussion Paper No. 16921) <https://www.econstor.eu/bitstream/10419/318075/1/Food-Security-in-Uzbekistan.pdf>
7. World Bank. (2025). Food Security Update, September Edition. <https://www.worldbank.org/en/topic/agriculture/brief/food-security-update>
8. AMIS. (2025). AMIS Market Monitor, September 2025. <https://www.amis-outlook.org/>
9. FAO. (2025). The State of Food Security and Nutrition in the World 2025. Rome: FAO. <https://www.fao.org/publications/sofi/en>
10. UNICEF/WHO/World Bank. (2025). Joint Child Malnutrition Estimates 2025. <https://data.unicef.org/resources/joint-child-malnutrition-estimates/>
11. IMF. (2023). Food Insecurity and Macroeconomic Stability. Washington, D.C.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>